O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM)ni rivojlantirish masalasi mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlash, energiya resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohaning rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan uzviy bog'liq bo'lib, suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug'orish tizimlari samaradorligini oshirish va energiya ta'minotini barqarorlashtirish kabi qator dolzarb masalalarni qamrab oladi.

O'zbekistonda mavjud qayta tiklanuvchi energiya manbalari tarkibida gidroelektr stansiyalar (GES) asosiy o'rinni egallaydi [1–2]. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan GESlarning ko'p qismi yilning 4–5 oyi davomida, asosan, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish mavsumida vegetatsion rejimda ishlab, elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Yilning qolgan qismida esa mazkur inshootlar suv resurslarini to'plash va saqlash orqali qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini ta'minlash vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, gidroenergetika obyektlari mamlakat energetika tizimida muhim o'rin tutib, respublikada ishlab chiqarilayotgan umumiy elektr energiyasining taxminan 15 foizini ta'minlab kelmoqda. Bu esa gidroenergetika salohiyatidan yanada samarali foydalanish, shuningdek, quyosh va shamol energetikasi kabi boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son<sup>1</sup> qarorida 2030-yilga qadar mamlakatda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini kamida ikki baravar oshirish vazifasi belgilangan [1]. Ushbu maqsadga erishish aholi turmush darajasini yuksaltirish, sanoat ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish, ayniqsa, qishloq joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini barpo etish bilan bog'liq strategik vazifalarni samarali amalga oshirish uchun muhim omil hisoblanadi [6].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining jadal rivojlanishi va aholi sonining ortib borishi elektr energiyasiga bo'lgan talabning yil sayin o'sishiga sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini barqaror ravishda oshirish, energetika tizimining ishonchligi va uzluksizligini ta'minlash dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Hozirgi vaqtda mavjud energiya akkumulyatsiyalash texnologiyalari orasida gidravlik energiyani to'plashga asoslangan gidroakkumulyatsiyalovchi elektr stansiyalar (GAES) eng samarali va keng qo'llaniladigan tizimlardan biri hisoblanadi. Mazkur stansiyalar elektr yuklamasining sutkalik grafigini tekislash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridagi o'zgaruvchanlikni kompensatsiya qilish hamda energetika tizimining ishonchligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi — quyosh elektr stansiyalari (QES), shamol elektr stansiyalari (SHES) va mikro gidroelektr stansiyalarni (mikro GES) respublika energetika tizimi tarkibida mavjud elektr stansiyalari bilan parallel ish rejimida samarali ekspluatatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish hamda nisbatan arzon va barqaror elektr energiyasini yetarli hajmda ishlab chiqarishni ta'minlovchi texnik va texnologik yechimlarni ishlab chiqishdan iborat. Mazkur yondashuv IEEE va IEC standartlarida ham aks etgan.

K.R. Allaevning ishlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining gibrid tizimlarda birgalikda ishlash masalasi chuqur tadqiq qilingan. Ularning asosiy ilmiy yo'nalishi — quyosh, shamol va gidroenergiyaning integratsiyasi hisoblanadi. QES va SHES chiqish quvvatidagi nobarqarorliklar GES yoki akkumulyatsiya tizimlari orqali qoplanishi, energiya tizimida "balancing mechanism" yaratilishi, gibrid stansiyalar orqali umumiy energiya samaradorligi oshirilishi ko'rsatilgan. Muallif xulosasiga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalari yakka holda emas, balki integratsiya qilingan tizimda samarali ishlaydi. [2]

B. Urishev va hammualliflar Markaziy Osiyo energetika tizimlarini tahlil qilib, desentralizatsiyalashgan va gibrid energetik modellarni rivojlantirish zarurligini asoslagan. Ularning ishlarida energiya tizimining markazlashmagan shaklga o'tishi, QES va SHESning mahalliy tarmoqlarga integratsiyasi, kichik quvvatli gidroenergetika manbalarining ahamiyati ta'kidlangan. [3]

M.M. Mukhammadiev va S.I. Klichev O'zbekiston energetika tizimida gidroakkumulyatsiyalovchi stansiyalar (GAES)ning roliga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar olib borgan. Ularning ishlarida QES va SHESning nobarqaror quvvatini kompensatsiya qilishda GAES muhim ekanligi, suv resurslarining energiya saqlash vositasi sifatida qo'llanilishi, energetik tizim balansini saqlash mexanizmlari ilmiy asoslangan. Ular GAESni

1 <https://lex.uz/uz/docs/-6303230>



“energiya buferi” sifatida baholaydi. [4]

K.B. Ashurov qayta tiklanuvchi energiya tizimlarida energiya saqlash texnologiyalarini tadqiq qilgan. Asosiy natijalar: QES samaradorligi energiya saqlash tizimi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq, batareya va gidroakkumulyasiya tizimlari bir-birini to‘ldiradi, energiyani saqlashsiz QES to‘liq samara bermasligi mumkin. U energiya saqlashni QTEMning “ikkinchi darajali asosiy komponenti” deb hisoblaydi. [5]

S.S. Alieva O‘zbekistonda QTEM salohiyatini geografik va iqlimiy nuqtayi nazardan baholagan. Uning ishlarida Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyatlarida yuqori shamol potentsiali mavjudligi, janubiy hududlarda quyosh energiyasi ustunligi, kichik tog‘ daryolarining mikro GES uchun juda qulayligi ilmiy asosda ko‘rsatilgan. [6]

A. Mustafuqulov mikro GES va gibrid energetik tizimlarni tadqiq qilgan. Uning ishlanmalarida QES + mikro GES + GAES kombinatsiyasi taklif etilgan, kichik quvvatli energetik tizimlarda avtonom rejimni ta‘minlash, asinxron generatorlardan foydalanish orqali qurilma arzonlashtirilishi ko‘rsatilgan. [7]

IEEE 1547 xalqaro standartida quyosh elektr stansiyalari (SES), shamol elektr stansiyalari (VES) va energiya saqlash tizimlarining energetik tizimga ulanish qoidalari belgilangan. IEEE standartlari QTEMni tarmoqqa integratsiya qilinadigan intellektual energiya manbai sifatida ko‘radi va uning asosiy vazifasi tarmoq barqarorligini qo‘llab-quvvatlashdan iborat hisoblanadi. [8]

IEC standartlarida QTEM rivojlanishi, quyosh panellarining (PV modullar) ishonchligi va xavfsizligi, shamol elektr stansiyalari (VES) uchun standartlar, turbinalarning loyihalaniishi, sinovi va xavfsizligi, quyosh energiyasini elektr tarmoqqa ulash talablari belgilangan. [9]

Vaclav Smil jahon energetika tizimlarining rivojlanishini o‘rgangan. Tadqiqot muammolari energiya xavfsizligi, global energetik o‘tish jarayoni, qayta tiklanuvchi energiyaning iqtisodiy va texnik cheklovlaridan iborat. [11–12]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan elektr stansiyalarining energetika tizimi tarkibida ishonchli va bashorat qilinishi mumkin bo‘lgan rejimda ishlashini ta‘minlash maqsadida ularning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini takomillashtirish yo‘llari tadqiq etildi. Mazkur yondashuv qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan elektr stansiyalarining energetika tizimidagi barqarorligini oshirish, ularning ish rejimidagi o‘zgaruvchanlikni kamaytirish hamda amaliyotda nisbatan ishonchli va prognoz qilinishi mumkin bo‘lgan energiya manbalari sifatida foydalanish imkonini yaratadi [8].

Ekspert baholariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi umumiy quyosh energiyasi salohiyati 51 milliard tonna neft ekvivalentidan ortiqni tashkil etadi [1]. Bu ko‘rsatkich mamlakatda quyosh energetikasini keng ko‘lamda rivojlantirish va yirik quvvatli QESlarni qurish uchun mustahkam resurs bazasi mavjudligini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham hozirgi kunga qadar gidroakkumulyasiyalovchi elektr stansiyalar (GAES) amalda mavjud emas. Xorijiy energetika tizimlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonga o‘xshash, ya‘ni issiqlik elektr stansiyalari ustuvor hisoblangan energetika tizimlarining barqaror va ishonchli faoliyatini ta‘minlash uchun GAES quvvati umumiy o‘rnatilgan elektr stansiyalar quvvatining taxminan 10–12 foizini tashkil etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi [3, 4].

O‘zbekiston energetika tizimi sharoitida gidroakkumulyasiyalovchi elektr stansiyalar (GAES) kunduzgi vaqtda nasos rejimida ishlab, quyi havzadan yuqori havzaga suvni ko‘tarish orqali quyosh elektr stansiyalari (QES) tomonidan ishlab chiqarilgan ortiqcha elektr energiyasini iste‘mol qiladi. Bu jarayon qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarishida yuzaga keladigan ortiqcha quvvatni samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Tunda esa GAES turbina rejimiga o‘tib, yuqori havzadan quyi havzaga suv oqimi hisobiga elektr energiyasini ishlab chiqaradi va energetika tizimida yuklama cho‘qqisi davrida quvvat yetishmovchiligini qoplaydi. Shu tariqa, QESlar bo‘yicha keng ko‘lamli qurilish ishlarining amalga oshirilishi bilan bog‘liq energetik muammolarni hal etishning eng samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida QES va GAES integratsiyasini parallel ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [9].

Ayniqsa, QESlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi tannarxining izchil pasayib borishi va uning an‘anaviy energiya manbalariga yaqinlashib borishi sharoitida GAESlarning bir vaqtning o‘zida barpo etilishi energetika tizimining texnik-iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hozirgi kunda GAES qurilishi yo‘lidagi asosiy amaliy to‘siqlardan biri ularning yuqori kapital sarf-xarajatlari hisoblanadi. Ushbu xarajatlarning sezilarli qismi yer qazish ishlari, gidrotexnik inshootlar, xususan, to‘g‘on (damba) qurilishi hamda suv omborlari tashkil etish bilan bog‘liq murakkab texnologik jarayonlarga to‘g‘ri keladi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Shamol elektr stansiyasi (SHES)ning chiqish quvvatini shamol parametrlarining tebranishlari sharoitida barqaror holatda saqlash, elektr tokida yuqori tartibli garmonik tashkil etuvchilarni minimallashtirish, shuningdek, shamol qurilmalarining kapital tannarxini kamaytirish va ekspluatatsiya jarayonlarini soddalashtirish maqsadida an'anaviy sinxron generator (SG) hamda yarimo'tkazgichli chastota o'zgartirgichlar o'rniga fazali rotorli asinxron generator (AG) foydalanish taklif etiladi. Fazali rotorli asinxron generatorning ishlash prinsipi muallif tomonidan ishlab chiqilgan boshqariladigan shamol qurilmasi misolida ko'rib chiqilishi mumkin [12–14]. Ushbu qurilmaning mexanik qismi shamol parametrlari keng diapazonda o'zgarganda ham shamol turbinasi parraklari geometrik burchaklarini avtomatik ravishda o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu orqali rotorning aylanish tezligini nisbatan barqaror darajada saqlashga erishiladi. Natijada generatorning ishlash rejimidagi o'zgaruvchanlik sezilarli darajada kamayadi va chiqish elektr quvvatining barqarorligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, quvvat elektronikasi qurilmalarini (rektifikator va inverter) qo'llashga bo'lgan ehtiyoj qisqarishi hisobiga tizimning umumiy tannarxi pasayadi hamda ekspluatatsiya jarayonlari soddalashadi.

Qurilmaning elektr qismi asinxron generatorning statik-mexanik xarakteristikasi maksimum nuqtasini rotor chulg'am zanjiriga qo'shimcha aktiv qarshiliklarni kiritish orqali sillitish imkoniyatiga asoslanadi. Ushbu yondashuv shamol parametrlari o'zgarish diapazoni nisbatan kichik bo'lgan holatlarda generator chiqish quvvatini belgilangan qiymat atrofida barqaror saqlash imkonini beradi.

Shamol turbinasi parraklari konstruktiv jihatdan asosiy va qo'shimcha qismlardan tashkil topgan holda loyihalanadi. Bunda parrakning qo'shimcha qismi asosiy konstruktiv element ichiga surilib kirishi yoki undan chiqarilishi mumkin bo'lib, bu orqali shamol oqimi bilan o'zaro ta'sirda ishtirok etuvchi umumiy aerodinamik yuza dinamik ravishda o'zgartiriladi.

Shamol tezligi pasaygan holatlarda avtomatik boshqaruv tizimi qo'shimcha parrak qismini oldinga chiqaradi, natijada shamol ta'sir yuzasi ortib, aerodinamik ko'tarish kuchini oshiradi. Aksincha, shamol tezligi ortib ketgan holatlarda qo'shimcha qism orqaga qaytariladi va ta'sir yuzasi kamaytiriladi. Bu esa rotor aylanish tezligini me'yoriy diapazonda saqlashga hamda generatorning elektr tarmog'iga uzatayotgan quvvatini nisbatan barqaror holatda ushlab turishga imkon beradi [6–9].

Taklif etilayotgan qurilmaning elektr qismi fazali rotorli asinxron generator (AG) tashkil topgan bo'lib, bunday yondashuv an'anaviy tizimlarda qo'llaniladigan sinxron generator hamda yarimo'tkazgichli chastota o'zgartirgichlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyojni istisno qiladi. Natijada mazkur qurilmalarga xos bo'lgan texnik murakkabliklar va yuqori kapital xarajatlar bilan bog'liq kamchiliklar sezilarli darajada qisqaradi.

Ma'lumki, ideallashtirilgan asinxron mashinada mexanik yo'qotishlar hisobga olinmagan holda elektromagnit moment ( $M_{em}$ ) dvigatel validagi mexanik momentga teng deb qabul qilinadi. Ushbu yondashuv asinxron mashinaning ishlash jarayonini analitik modellashtirish imkonini beradi hamda uning mexanik xarakteristikalarini matematik ifoda ko'rinishida tavsiflash uchun nazariy asos yaratadi [12].

Shu asosda asinxron mashinaning mexanik xarakteristikasi slip ( $s$ ) va elektromagnit parametrlar o'rtasidagi bog'lanish orqali analitik shaklda ifodalanadi, bu esa qurilmaning turli ish rejimlaridagi dinamik holatini tahlil qilish va optimal boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

$$M = \frac{m_1 U_1^2 r_2'}{s \omega_1 \left[ \left( r_1 + C_1 \frac{r_2'}{s} \right)^2 + \left( x_1 + C_1 x_2' \right)^2 \right]}, \quad (1)$$

Bu yerda:  $U_1$ - stator chulg'amiga berilgan liniya (yoki fazaviy) kuchlanish,  $m$ -fazalar soni;  $R_2$ ,  $X_2$ -stator chulg'amining aktiv va induktiv qarshiliklari;  $r_2'$ ,  $x_2'$  - rotor chulg'amining aktiv va induktiv qarshiliklari bo'lib, ular stator chulg'amiga keltirilgan (ekivalent) parametrlar hisoblanadi;  $k_E$ - stator chulg'amining ideal bo'sh yurish rejimida kuchlanishning indusirlangan EYUKga nisbatini ifodalovchi koeffitsiyent. Yirik quvvatli elektr mashinalarida mazkur koeffitsiyent birlikka yaqin qiymatni qabul qiladi, ya'ni  $k_E = 1$ .

Ushbu parametrlar asinxron mashinaning elektr va mexanik rejimlarini tahlil qilishda asosiy hisoblanib, uning ishlash xarakteristikalarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

1-rasmda stator chulg'am kuchlanishining amplitudasi va chastotasi doimiy bo'lgan holatda, rotor zanjirining aktiv qarshiligi turli qiymatlarga ega bo'lganda asinxron mashinaning mexanik xarakteristikalari keltirilgan.

Xarakteristikalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda ekstremum nuqtalari mavjud bo'lib, ushbu qiymatlar (1) ifodada keltirilgan analitik bog'lanishning sirpanish ( $s$ ) bo'yicha hosilasini olish orqali, qolgan barcha parametrlarni doimiy deb qabul qilgan holda va hosilani nolga tenglashtirish sharti asosida aniqlanishi mumkin [10–12].

Mazkur yondashuv asinxron mashinaning maksimal elektromagnit momenti va unga mos sirpanish qiymatini topish imkonini beradi hamda uning ishlash rejimlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

$$\frac{dM_{\omega M}}{dt} = 0 \quad (2)$$


Shundan so'ng, elektromagnit momentning maksimal qiymatga erishishini ta'minlovchi kritik sirpanish quyidagi analitik ifoda orqali aniqlanadi:

$$s_k = \pm \frac{C_1 r_2'}{\sqrt{r_1^2 + (x_1 + C_1 x_2')^2}} \quad (3)$$

(3)da keltirilgan kritik sirpanish qiymatini (1) ifodaga qo'yish orqali aylanuvchi magnit maydon tezligida ishlaydigan asinxron mashina uchun maksimal elektromagnit moment qiymati aniqlanadi. Bu holatda asinxron mashinaning maksimal momenti uning parametrlariga bog'liq bo'lmagan sirpanish qiymatida yuzaga kelishi ko'rsatiladi.

$$M_m = \pm \frac{pm_1 U_1^2}{2\omega_1 C_1 \left( \pm r_1 + \sqrt{r_1^2 + (x_1 + C_1 x_2')^2} \right)} \quad (4)$$

Bu yerda:  $p$  — mashinaning qutb juftlari soni bo'lib,  $u$  aylanuvchi magnit maydon tezligi hamda sinxron tezlikni aniqlashda asosiy parametrlardan biri hisoblanadi. (3) ifodadagi «+» belgisi hamda undan oldin kelgan hadlar asinxron mashinaning dvigatel rejimida ishlash sharoitini ifodalaydi. Bu holatda mashina elektr energiyasini mexanik energiyaga aylantiradi va rotor aylanishi aylanuvchi magnit maydon yo'nalishi bilan mos ravishda amalga oshadi. Aksincha, «-» belgisi asinxron mashinaning generator (yoki tebranish) rejimiga o'tishini ko'rsatadi. Ushbu rejimda rotorning mexanik energiyasi elektr energiyasiga aylantiriladi hamda energiya tarmoqqa uzatiladi yoki tizim ichida qayta taqsimlanadi. Bunday holat, odatda, rotor tezligi sinxron tezlikdan yuqori bo'lganda kuzatiladi (1-rasm).



1-rasm. Asinxron mashinaning mexanik xarakteristikalarini ko'rsatuvchi diagramma



Qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron generatorning mexanik xarakteristikasidagi ishchi sohasi (1-rasmdagi 1-egri chiziq) 0–A1 kesma bilan ifodalanadi. Ushbu zona rotor sirpanishining (aylanish tezligining) juda kichik diapazonda o'zgarishiga mos keladi. Bu chegaradan tashqarida rotor tezligi o'zgarganda generatorning barqaror elektr energiyasi ishlab chiqarish rejimi saqlanmaydi. Shu sababli qafassimon rotorli asinxron generator shamol energetika qurilmalarida qo'llash nuqtayi nazaridan cheklangan imkoniyatlarga ega hisoblanadi.

Fazali rotorli asinxron generatordan foydalanilganda esa uning ishchi diapazoni sezilarli darajada kengaytirilishi mumkin. Bu holat shamol parametrlari o'zgarganda rotor chulg'am zanjiriga avtomatik ravishda qo'shimcha aktiv qarshilik kiritish orqali amalga oshiriladi. Natijada rotor sirpanishining mumkin bo'lgan o'zgarish diapazoni kengayib, 0–A1, 0–A2 va 0–A3 kesmalar bilan ifodalangan bir nechta barqaror ish rejimlari hosil qilinadi.

Laboratoriya sharoitida MTF111-6 turidagi uch fazali asinxron mashina va 4PNM112LO4 turidagi o'zgarman tok mashinasidan iborat eksperimental standda o'tkazilgan tadqiqotlar, quvvati 2,2 kVt, kuchlanishi 220 V va rotor aylanish tezligi 1500 ayl/min bo'lgan holda yuqorida keltirilgan nazariy xulosalarni tasdiqladi. Olingan natijalar 2-rasmda punktir chiziqlar bilan aks ettirilgan.

Taklif etilayotgan qurilmaning elektr qismi kichik va mikro GESlarda qo'llanilishi mumkin bo'lib, bu oqimdagi suv sarfi parametrlari o'zgaruvchan bo'lgan sharoitlarda ham generator chiqish quvvatini nisbatan barqaror saqlash imkonini beradi, shu orqali tizimning ishonchligi va energetik samaradorligi oshiriladi.

Shunday qilib, birlamchi energiya manbalari parametrlari o'zgaruvchan bo'lgan sharoitlarda energetika tizimini barqaror quvvat bilan ta'minlash hamda shamol elektr stansiyalari (SHES), mini va mikro gidroelektr stansiyalarni qurishda kapital xarajatlarni qisqartirish imkonini beruvchi samarali texnik yechim taklif etildi.

SHES qurilishida kapital investitsiyalarni sezilarli darajada kamaytirish va energetika tizimining dinamik beqaror rejimlarini minimallashtirish maqsadida mamlakat elektrotexnika sanoati hamda boshqa iqtisodiyot tarmoqlari korxonalar bazasida, xorijiy firma va kompaniyalar ishtirokida qo'shma korxonalar tashkil etish orqali SHES elementlarini mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bu doirada tayanch konstruksiyalar, yo'naltiruvchi parraklar, reduktorlar, asinxron generatorlar, shuningdek, ishga tushirish, boshqarish va himoya qurilmalarini mahalliyashtirilgan asosda ishlab chiqarishni tashkil etish zarurligi asoslanadi. Bunday yondashuv texnologik mustaqillikni oshirish va importga bog'liqlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Mamlakat elektrotexnika sanoatining hozirgi rivojlanish darajasi, mavjud kadrlar salohiyati hamda xomashyo bazasi 3–5 MVt va undan yuqori quvvatli shamol energetika uskunalarini mahalliy sharoitda o'zlashtirish uchun yetarli ilmiy-texnik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu esa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etishning amaliy asoslarini yanada mustahkamlaydi.

Turli energiya manbalariga asoslangan elektr stansiyalarini samarali qiyosiy tahlil qilish va maqbul variantni tanlash maqsadida o'rnatilgan quvvat birligiga to'g'ri keladigan solishtirma kapital xarajatlar ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Buning uchun mamlakatda yangi qurilgan issiqlik elektr stansiyalari (IES) bo'yicha haqiqiy kapital xarajatlar, gidroelektr stansiyalar (GES) va shamol elektr stansiyalari (SHES) qurilishiga doir xorijiy kompaniyalar takliflari, shuningdek, mikro GESlarning mavjud va yangi ishlab chiqilgan loyiha yechimlari qiymati qiyosiy asosda o'rganiladi.

Tabiiy gaz yetishmovchiligi sharoitiga qaramasdan, joriy yilda har biri 450 MVt quvvatga ega bo'lgan ikki gaz-par turbina qurilmasidan iborat To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasi barpo etildi. Ushbu stansiyaning umumiy kapital xarajatlari 1195 million AQSH dollarini tashkil etgan [15]. Ushbu ma'lumotlar asosida issiqlik elektr stansiyalari uchun solishtirma kapital xarajatlar 1 kVt o'rnatilgan quvvat uchun taxminan 1330 AQSH dollari darajasida ekanligi aniqlanadi.

IESlar uchun ekspluatatsiya xarajatlari esa asosan yoqilg'i (tabiiy gaz) sotib olish va uni tashish, yoqish jarayonlari, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlaridan tashkil topadi. Bu omillar IESlarning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi [14–16].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Quyosh elektr stansiyalari (QES) sohasida keng ko'lamli qurilish ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq texnik, iqtisodiy va ekspluatatsion muammolarni hal etishning maqbul yechimi sifatida gidroakkumulyatsiyalovchi elektr stansiyalar (GAES)ni bir vaqtning o'zida barpo etish taklif etiladi. Bu yondashuv energetika tizimida yuklama grafiklarini tekislash, kunduzgi va tungi rejimlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini samarali integratsiya qilish imkonini beradi.

GAES qurilishida kapital xarajatlarni kamaytirish masalasini hal etish uchun mavjud gidroenergetik infratuzilmadan kompleks foydalanish, xususan, gidroelektr stansiyalar kaskadlariga e'tibor qaratish hamda

ularning suv havzalarini o'zaro integratsiyalash (birlashtirish) zarur hisoblanadi. Bunday yondashuv yangi yirik gidrotexnik inshootlar qurilishini qisman cheklash va mavjud resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bunga misol sifatida Pskem va Mullalak gidroelektr stansiyalarining yangi tashkil etilayotgan kaskad tizimi keltirilishi mumkin.

Shamol elektr stansiyalari (SHES) va mikro gidroelektr stansiyalar qurilishiga yo'naltiriladigan kapital investitsiyalarni sezilarli darajada kamaytirish maqsadida ularni mamlakat elektrotexnika sanoati hamda boshqa iqtisodiyot tarmoqlari korxonalar bazasida, xorijiy firma va kompaniyalar ishtirokida qo'shma korxonalar shaklida ishlab chiqarishni tashkil etish taklif etiladi. Bu esa mahalliy lashtirish darajasini oshirish, tannarxni pasaytirish va energetika sohasida texnologik mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6303230>
2. Allaev K.R. Power of the world and Uzbekistan, Tashkent(2007).: Moliya, 378 p.
3. B. Urishev, U. Kuvatov, A. Umirov. "Determination of Main Energy Parameters and Efficiency of Local Energy System Based on Renewable Energy Sources" — 2022 yil. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science.
4. Muhammadiev M.M., Klychev Sh.I. (2018). The use of pumped storage power plants in Uzbekistan", Solar Energy, No. 6.
5. K. B. Ashurov, K. K. Kadirov. Structure and Parameters of Vacuum Arc Cathode Spots. Bulletin of the Russian Academy of Sciences: Physics.— 2014 yil.
6. T.G. Aliev, Sh.T. Alieva. "The Role of Renewable Energy in Sustainable Energy Supply"— 2023 yil
7. A. Mustafoqulov. "Use of Renewable Energies in Uzbekistan". International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (Vol. 7, Issue 3). — 2020 yil
8. Volynsky M.A., Volosukhin V.A., Belokonev E.N. (2008). Improving the reliability of the hydraulic operation of the upper pool of the Zagora HSPS-2, Hydraulics and Engineering Hydrology, No. 5, pp. 70-73 (in Russian).
9. Dmitrieva I.L., Guryevich T.B., Samoseyko A.N., Filippov G.G., Ivanov A.V. (2010). Assessment of the state of water biota in the pools of pumped storage power plants, Hydrotechnical construction, No. 2, pp. 66-73 (in Russian).
10. Zakhidov R.A., Kremkov M.V. (2015). The potential of wind energy in Uzbekistan, Solar Energy, No. 4, pp. 111-112.
11. Materials of the Second National Conference (2016). Development of the Wind Energy Potential of the Republic of Uzbekistan, pp. 6 (in Russian).
12. An analytical report of the Center for Economic Research "Alternative energy sources: opportunities for use in Uzbekistan", (2011). <http://www.biznes-daily.uz/birjaexpert/20788-vozobnovlyami-istochniki-energii-prspktivi-razvitiya>.
13. Alimkhodjaev Sh.K. (2015). Wind power station operating in parallel with the existing power system of Uzbekistan, Problems of energy and resource saving, No. 1 (in Russian).
14. Alimkhodjaev K.T. (2019). Controlled wind power installation, Patent of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Bul. No. 3, IAP 05781 dated 03/29/2019 (in Russian).
15. Toirov O.Z., Alimkhodjaev K.T., Alimkhodjaev Sh.K. (2019). Renewable energy sources. Working in the conditions of Uzbekistan production and use prospects, Monograph, Tashkent: Fan and technology, 212 p.
16. Toirov O.Z., Alimkhodjaev K.T., Alimkhodjaev Sh.K., Taniev M.X. (2020). Asynchronous phase-rotor generators for wind power plants and micro hydroelectric power stations included in parallel with the network, 5th international scientific and technical conference: Electric drive, electrical technologies and electrical equipment of enterprises, Ufa, Russia, p. 305-312.
17. Launched Turakurgan Thermal Power Station, <https://www.tuz.kg/news/1753> (in Russian).
18. Turkish Etko Co Enerji A.S to build a wind farm in Uzbekistan, <https://podrobno.uz/cat/economic/turetskaya-etko-co/>.
19. <https://uz.sputniknews.ru>
20. [https://ru.made-in-china.com/tag\\_search\\_product/](https://ru.made-in-china.com/tag_search_product/)

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)